# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2024

№ 4




- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

*Elektron nashr. 882 sahifa.*
*E'lon qilishga 2024-yil 30-aprelda ruxsat etildi.*



**Bosh muharrir:**
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o'rinbosari:**
**Karimov Norboy G'aniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay'ati:**
**Salimov Oqil Umrzoqovich,** O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
**Axmedov Sayfullo Normatovich** i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** i.f.d., TMI professori
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** i.f.n., TDIU professori
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** f.f.d., TDIU professori
**Axmedov Ikrom Akramovich,** i.f.d. TDIU professori
**Po'latov Baxtiyor Alimovich,** t.f.d., profesor
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich,** i.f.d., TDIU professori
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** i.f.d., TDIU professori
**Musyeva Shoira Azimovna,** SamDu IS instituti professori
**Axmedov Javohir Jamolovich,** i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li,** t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi
**Xalikov Suyun Ravshanovich,** i. f. n., TDAU dotsenti
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Rustamov Ilhomiddin,** f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
**Fayziyev Oybek Raximovich,** i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
**Sevil Piriyeva Karaman,** PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
**Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li,** TDIU mustaqil tadqiqotchisi
**Utayev Uktam Choriyevich,** O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
**Ochilov Farxod,** O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** TDIU katta o'qituvchisi

**Ekspertlar kengashi:**
**Berkinov Bazarbay,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** i.f.d, TDIU dotsenti
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** i.f.f.d, TDIU dotsenti
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi,** i.f.d., TMI dotsenti
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** TDIU mustaqil tadqiqotchisi



Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

# MUNDARIJA

Organizational Behavior and Leadership ........ 10
**Ibrokhim Gulomov**

Baliqchilikda klasterlarini tashkil etishning nazariy asoslari ........ 18
**Olim Murtazayev, Muydinov Olim Bekmuratovich**

Оценка состояния привлечения инвестиций в сферу туризма Узбекистана и механизмы управления 24
**Арзиматов Бобирмирзо Зокирджон угли**

Biologik aktivlar buxgalteriya hisobni milliy va xalqaro standartlarga muvofiq takomillashtirish masalalari ... 27
**Axmadaliyeva Zebo Abduxalimovna**

Aholi yashash joylarida yong'in risklarini bartaraf etish xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari ........ 32
**Aziz Zikriyoev**

O'zbekistonda ilmiy darajali kadrlar tayyorlash tizimi boshqaruvining tashkiliy tuzilmasi va vazifalari ........ 40
**Beknaeva Shaxnoza Vladimirovna**

Mintaqaviy turizmning iqtisodiyot rivojlanishiga ta'siri (O'zbekiston turistik xizmatlar bozori misolida) ........ 45
**D. B. O'roqova**

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ko'paytirishning asosiy yo'llari ........ 50
**Ibrohimov Boburmirzo Baxtiyor o'g'li, Sayfiddinov Sarvarbek Anvarbek o'g'li**

Sanoat korxonalarining aksiyalar bozoridagi faoliyati tahlili: muammolar va yechimlar ........ 55
**Igitov Jurabek Kuzibekovich**

Qurilishda modernizatsiya va diversifikatsiya qilish asosida yangi ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish ........ 63
**Islamov Ozodjon**

Sanoat korxonalari innovatsion salohiyatini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish yo'llari ........ 67
**J. K. Boymurodov**

Mamlakatda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish yo'nalishlari ........ 72
**Kadirxodjayeva Nilufar Raxmatullayevna**

BlokchEYn texnologiyalari yordamida raqamli iqtisodiyotni o'zgartirish ........ 77
**Karabayev Rustam Zafarovich, Saitkamolov Muxammadxo'ja Sobirxo'ja o'g'li**

Raqamli iqtisodiyot sharoitida zamonaviy mehnat bozorining rivojlanishi ........ 84
**Layli Mirzayeva**

Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishda investitsion resurslardan samarali foydalanish mexanizmlari ........ 88
**Luiza Komilovna Xaydarova**

Umumta'lim muassasalari soninining ekonometrik tahlilini pedAgogik metodlar yordamida amalga oshirish .... 93
**Ravshanova Muhayyo Maxmanazarovna**

O'zbekiston tarixiy shaharlarida turistik faoliyati shakllanishi va ularni boshqarishning nazariy asoslari ........ 98
**Meliqulov G'ayrat Abdug'afforovich**

Iqtisodiy rivojlanish va ilmiy tadqiqot rivojlanishining havo ifloslanish darajasiga ta'siri ........ 105
**Murodullayev Kamoliddin Sherzod o'g'li, Sadibekova Bibisora Djapparovna, Turdiqulov Farrux Ravshanjon o'g'li**

Hududlarni rivojlantirish va "yashil iqtisodiyot"ni shakllantirishning ekologik muammolari ........ 110
**Maxkamov Saidafzal Saidkamol o'g'li, Yigitaliyeva Dilnavo Mansurjon qizi**

Ekoturizm obyektining tasniflanishi va alohida xususiyatlari ........ 116
**Qodirov Azizjon Anvarovich**

Mamlakatimiz oliy ta'lim tizimda sifat menejmentidan foydalanishning konseptual asoslari ........ 121
**Saidqulova Firuza Farmonovna**

Bo'lajak iqtisodchilarning kasbiy kompetensiyalari ........ 125
**Shukurova Marifat Xodjiakbar qizi**

Ta'limning bosqichlari va ularning inson kapitalini shakllantirishdagi ahamiyati ........ 129
**To'rayeva Hurriyat To'yqulovna**

Hududlarda to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish dasturini amalga oshirishda marketingni rivojlantirish yo‘llari ........ 136
**Xamidov O. X., Tojiyeva A. F.**

Investitsiyalar marketingining strategik aspektlari ........ 143
**Xodjamberdiyeva Dilnoza Bahtiyorovna**

Xorijiy investitsiyalarni jalb etishda investitsion muhit jozibadorligini oshirishga nazariy qarashlar ........ 149
**A. Bektemirov, A. A. Abdurahmonov**

Qishloq xo‘jaligi raqobatbardoshligini oshirishning ilg‘or xorij tajribasi ........ 154
**Abdulloyev Asliddin Junaydullayevich, Ochilov Narzullo Fayzulloyevich**

Sanoat ishlab chiqarish tizimining investitsion xususiyatlari ........ 159
**Yodgorova Xalima To‘lqinovna**

Turizm sohasi uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda davlat va xususiy sherikchilikning o‘zaro bog‘liqligi tahlili ........ 165
**Raxmatov Adxam Itolmasovich**

Mamlakatimizda turizm tashkilotlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash maqsadida marketing instrumentlari orqali samarali tizim yaratish ........ 169
**Suyunova Kamilla Baxromovna**

Qishloq xo‘jaligida agrokimyo xizmatlar ko‘rsatishning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo‘llari ........ 173
**Tabayev Azamat Zaripbayevich**

Yashil iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilishni faollashtirish muammolari ........ 178
**Xomitov K. Z., Masharipova S. R.**

Considerations on the Problem of Illegal Migration and Human Trafficking ........ 183
**Azamatova Gulmira Bayirbekovna, Otarbayeva Guljan Kobeyevna**

Sustainable Development and Environmental Economics in Uzbekistan: A Focus on Carbon Pricing and Renewable Energy ........ 186
**Muhammadiyev Po‘latjon Ilhomjon o‘g‘li, Uzganbayeva Dilnoza Toxtasinovna**

The use of Digital Technologies in the Provision Of Utilities to the Population ........ 192
**Mamanazarov Oybek Shomurodovich, Inoyatova Durdona Shoxaydarovna, Alijonov Jamshid Alijon o‘g‘li**

The Current State of the Digital Economy in the Agrarian Sphere: Problems and Solutions ........ 196
**Babadjanov Abdirashid Musayevich**

Behavioral Theory of the Firm ........ 201
**Egamberdieva Oydin Abror qizi**

The Role of Information Technologies in Increasing the Capitalization of Commercial Banks ........ 207
**Egamova Makhfurat Esanovna**

Финансовые риски в исламском финансировании для внедрения в Республики Узбекистан ........ 211
**Абдуллоев Фуркат Олимджонович**

Совершенствование методологии экспертизы инвестиционных проектов ........ 216
**Бекимбетова Гулнора Маратовна**

Методические подходы к формированию механизмов стратегического управления развитием химической отрасли ........ 223
**Бибутова Шахло Саъдуллаевна**

Меры по снижению доли теневой экономики в стране ........ 228
**Махмудова Юлдузхон Бахромжон қизи, Сафаров Гиёсиддин Абдуллаевич ўғли**

Формирование национальной инновационной системы – одна из приоритетных задач повышения конкурентоспособности Республики Узбекистан ........ 232
**Н. М. Махмудов, А. А. Алиев, З. А. Мирзоев**

Мониторинг и анализ современного состояния и развития промышленности в Узбекистане ........ 237
**Назарова Раъно Рустамовна, Исмоилова Малика Дилшодовна**

Цифровая платформа как инструмент трансформации бизнес-процессов ........ 243
**Раупов Жамшид Рашидович**

Роль применения ключевых показателей эффективности труда на предприятиях ........ 249
**Рахматуллаева Шахноза Хамидовна**

Влияние цифровой трансформации на инвестиционную привлекательность Узбекистана........................255
**Саиткамолов Мухаммадхожа Сабирходжа угли, Маркабаева Жансая Айбек кызы**

Организация и координация методической помощи при управлении педагогическими кадрами ..........261
**Хакимова Майя Юрьевна**

Интеграция узбекистана в мировое экономическое содружество путем унификации бухгалтерского учета на основе МСФО ........................................................................266
**Зарипова Саёхат Зафаровна**

Tijorat banklari tomonidan investitsiya loyihalarini moliyalashni rivojlantirish imkoniyatlari................................271
**Abduqodirova Ozoda Anvarjon qizi**

Tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarning joriy tahlili ..................................................276
**Abdusalomov Jaxongir O‘ktam o‘g‘li**

Globallashuv sharoitida mamlakatimizda sug‘urta bozorini raqamlashtirishning ahamiyati ....................................282
**Anvarova Z.**

The Role of Parents and Teachers in Promoting a Healthy Lifestyle in Children..................................................286
**Axtamov Djamshed Baxromovich**

A Study of the Importance of Green Economy in Uzbekistan Sustainable Economic Development and its Measurement Indicators in Relation to Environment...............................................................291
**Ataniyazova Maksuda Baltayevna, Tairova Zarnigor Mammat qizi**

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot tuzishning zarurligi...........................................................................296
**Avazov Ilxom Ravshanovich**

Foydani soliqqa tortish obyekti sifatidagi iqtisodiy tarkibi ...............................................................................301
**Axrorov Zarif Oripovich**

Surxondaryo viloyatida aholining uy-joy bilan ta’minlanganlik darajasini tahlili ..................................................309
**Ibragimov Qobil To‘xtamishovich**

Review of Methodological Approaches to Enterprises Financial Condition Analysis...................................................314
**Ismailova Maxbuba Mirxalilovna**

Innovatsion rivojlanish sharoitida xizmat ko‘rsatish sohasini tasniflanishining nazariy va ilmiy asoslari...........319
**Masharipova Manzura Alimbayevna**

Korxonalarda benchmarketing strategiyalarini qo‘llashning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlari ................................325
**Narziyeva Dilafiruz Muxtorovna**

Davlat budjetining soliqsiz daromadlari shakllanishini takomillashtirish yo‘llari...........................................................330
**O‘ktamova Nargiza Narzulla qizi**

Mamlakatimizda sanoat ishlab chiqarishi korxonalarining rivojlanish holati tahlili...................................................334
**Olimov Maqsudjon Komiljon o‘g‘li**

Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlar talablari asosida tuzish.............................................................................................................339
**Pardayeva Zulfizar Alimovna**

Raqamlashtirish sharoitida qo‘shma korxonasi faoliyatining tahlili ....................................................................343
**Rashidov Jamshid Xamidovich**

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishida oilaviy tadbirkorlikning o‘rni.............................................348
**Raximov Baxromjon Ibroximovich, Saloxiddinov Zuxriddin Nuriddin o‘g‘li**

Raqamli iqtisodiyot sharoitda xizmat ko‘rsatishning ilmiy asoslari.......................................................................352
**Suyunov Asror Baxtiyorovich**

Raqamli iqtisodiyot sharoitda telekommunikatsiya sohasini rivojlantirish ilmiy asoslari..........................................356
**Toshmatov Salohiddin Zayniddinovich**

Raqamli iqtisodiyot sharoitida innovatsiyalarni joriy etishning huquqiy masalalari ..................................................360
**Turg‘unov Saloxiddin Jamol o‘g‘li, Mirzayeva Mohidil Vohidovna**

Zamonaviy sharoitlarda korxonalarning moliyaviy baqarorligini yaxshilash masalalari .............................................366
**Usmanova Guljahon Ulug‘bek qizi**

Franshizalarni jalb qilishda davlat boshqaruvi tizimida marketing tadqiqotlarining ahamiyati ..............................371
**Xodjayev Anvar Rasulovich**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Transport Decarbonization Strategy ..... 377
**Yarashova Vasila Kamalovna, Muradov Bekzod Xidirnazar ugli**

Temir yoʻl transportida ishlab chiqarish faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirish ..... 382
**Yermatova Dilnoza Axmadjonovna**

Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish istiqbollari ..... 387
**Yuldashev Xusniddin Abdullayevich**

Issiqlik ta’minoti xizmatlarini koʻrsatish samaradorligi va sifatini baholash koʻrsatkichlari tizimi ..... 390
**Abdulaziz Abdumoʻminovich Matroʻziyev**

Issiqlik ta’minoti xizmatlari sifatiga ta’sir etuvchi omillar va ularni baholash ..... 394
**Abdulaziz Abdumoʻminovich Matroʻziyev**

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga soliq solishni takomillashtirish ..... 399
**Abdullayev Zafarjon Alijonovich, Zaydullayev Abduhabib Boliqul oʻgʻli**

Sugʻurta tashkilotlarida hisob siyosatini ishlab chiqishning ahamiyati ..... 404
**Abduraimova Maftunaxon Axmatovna**

Bank risklarini boshqarishning xalqaro tajribalari ..... 409
**Abdurasulov Jaxongir Abduvaliyevich**

Tadbirkorlik subyektlari ijtimoiy ma’sulligini ta’minlash mexanizmining amal qilish darajasi ..... 416
**Bayisbayev Javlon Nurlanovich**

Qishloq aholisining qishloq xoʻjaligida bilim va innovatsiyalarni oʻzlashtirishiga ta’sir etuvchi omillarni iqtisodiy baholash (Samarqand viloyati misolida) ..... 421
**Bozorova Lobar Nuralevna**

Направления совершенствования инновационных стратегий в деятельности промышленных предприятий ..... 427
**Дониерова Зухрабону Алишер кизи**

Mol-mulk soligʻining korxonalar faoliyatiga ta’siri ..... 432
**Qudiyarov Kishibay Ramatullayevich**

Banklar reytingini aniqlash va barqarorligini ta’minlashning ustuvor yoʻnalishlari ..... 438
**Maxmudov Omon Tuxtayevich**

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tijorat banklarining aktiv va passiv operatsiyalarini innovatsion usullar orqali boshqarishni takomillashtirish ..... 442
**Moʻminova Ma’suda Baxtiyarovna**

Auditorlik tekshiruvini dasturiy ta’minot asosida tashkil etish: muammo va yechimlar ..... 447
**Nazarova Kamola Sattorali qizi**

Ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishning davlat tomonidan tartibga solish konsepsiyasi ..... 453
**Normurodov Xusan Eshmaxmatovich**

Oʻzbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ahamiyati hamda uni rivojlantirish istiqbollari ..... 460
**Nurullayeva Shaxnoza, Saydullayeva Saodat**

Tijorat banklari inson kapitali samaradorligini baholashda KPI koʻrsatkichlaridan foydalanish mexanizmlari ..... 467
**Turaeva Mastura Kurbanovna**

Сущность и особенности инвестиционно-строительного процесса ..... 471
**А. Бектемиров, Б.М.Абдувалиев**

Tijorat banklarida muammoli kreditlarni boshqarishning dolzarb masalalari ..... 478
**Saidov Hayotjon Raxmatulloyevich**

Tijorat banklarida kredit operatsiyalari hisobini takomillashtirish ..... 482
**Sa’dullayeva Asalxon Muzaffarovna**

Koʻp tarmoqli fermer xoʻjaliklarining raqobatbardoshlikni baholash usullari ..... 485
**Abdulloyev Asliddin Junaydullayevich, Teshayev Mirolim Djumayevich**

Tadbirkorlik subyektlarida soliq yukini optimallashtirish mexanizmi ..... 490
**Toʻxsanov Qudratillo Nozimovich**

Davlat sektorida ichki audit tadbirlarini umumiy rejalashtirish ........ 495
**Xamidova Z. U.**

Aholi moliyaviy savodxonligini oshirish va uning ahamiyati ........ 501
**Xudayarova Xurshida Abdunazarovna**

Kambagʻallikni qisqartirishning xorijiy mamlakatlar tajribasi ........ 505
**Xudoyberdiyev Jamshid Juraboy oʻgʻli**

Oliy taʼlim muassasalarida buxgalteriya hisobi va ichki auditni takomillashtirish ........ 511
**Shaymatova Nargiza Ashurovna**

Raqamli iqtisodiyot sharoitida sugʻurta xizmatlari ........ 516
**Shodmonova Odina Gʻofur qizi**

Fuqarolar davlat pensiya taʼminoti tizimining amaldagi holati tahlili ........ 520
**Sholdarov Dilshod Azimiddin oʻgʻli**

Aholiga bank xizmatlari koʻrsatishning ijtimoiy ahamiyati ........ 525
**Eldor Uskanov**

Innovatsion boshqaruvning ilgʻor xorijiy tajribalari ........ 530
**Yusupova Jamila Karamatdinovna**

Neft-gaz korxonalari moliyaviy-iqtisodiy faoliyati natijalari tahlili (“OʻZBEKNEFTGAZ” AJ misolida) ........ 534
**Umurzoqov Jamoliddin Sherbekovich**

Korxonalarda savdo marketing faoliyati samaradorligini baholash ........ 541
**Sobirov Azizbek Avzbekovich**

Moliyaviy firibgarliklarga qarshi kurashishda raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari ........ 548
**Gadaev Ismat Yadgarovich**

Hududlarda islom iqtisodiyoti tamoyillari asosida amalga oshirilgan investitsion loyihalar: toʻsiqlar va yechimlar ........ 551
**Irgasheva Gulbahor Sodiqovna**

Oʻzbekistonda investitsiyalardan samarali foydalanish asosida oziq-ovqat sanoati samaradorligini oshirish yoʻllari ........ 554
**Kobilova Nasiba Xurramovna**

Foreign Economic Relations as a Factor of Effective Functioning of the Economy ........ 561
**Bakhodurova Sulkhiya Azizkhodjaevna, Li Marina Rudolfovna, Mukhtarova Donata Ravshanbekovna, Romashkin Roman Anatolyevich**

Modern Approaches to the Organization and Development of the Consumer Services Market ........ 566
**Musyeva Shoira Azimovna**

Ishlab chiqarish siklini qisqartirishning iqtisodiy samaradorligi ........ 570
**Odina Nabiyevna Tuychiyeva, Nazarova Latofat Toirjon qizi**

Asalarichilik mahsulotlari bozorida marketing strategiyasini amalga oshirish ........ 575
**Rashidova Xadicha Tursunalievna**

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida bank faoliyatini iqtisodiy-matematik modellashtirish yoʻllari ........ 581
**Raxmanov Mexridin Sindarovich**

Korporativ boshqaruv amaliyoti boʻyicha hisobot tuzish boʻyicha xorijiy tajriba ........ 586
**Tashmatov Rustam Xusanovich**

Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish istiqbollari ........ 592
**Yuldashev Xusniddin Abdullayevich**

Iqtisodiyotda turizm oʻrnini statistik baholash uslubiyoti ........ 595
**Zilola Jumanova**

Финансовые риски в исламском финансировании для внедрения в Республики Узбекистан ........ 602
**Абдуллоев Фуркат Олимджонович**

Блокчейн-технология и информационная безопасность в цифровой экономике Узбекистана ........ 607
**Кадиров Алишер Исмаилович**

Цифровая платформа как инструмент трансформации бизнес-процессов ........ 611
**Раупов Жамшид Рашидович**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

O'zbekistonda zamonaviy kabel va sim mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyatiga nazar ....617
**Rashidova Odina Olimjon qizi**

Современные тенденции развития валютных отношений в Узбекистане ....622
**Камалов Камоладдин Кахрамонович**

Sug'urta sohasining O'zbekiston iqtisodiyotidagi o'rni ....626
**Sharobiddinov Akramjon Goyibbayevich**

Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishning xorij tajribasi va undan O'zbekistonda foydalanish yo'nalishlari ....630
**Fayziyeva Aziza Azamat qizi**

Modeling the Stackelberg strategy in a linear model (linear city) Hotteling ....635
**Musayeva Shaira Azimovna, Usmonova Dilfuza Ilkhomovna**

Mulkning kapitallashuvi darajasini iqtisodiy jihatdan amalga oshirish samaradorligini baholash uslublari ....644
**Norboyev Odil Abrayevich**

Tijorat banklarining kredit portfelini amaliy holati va ekonometrik tahlillari: ATB "Aloqabank" misolida ....649
**Norov Akmal Ruzimamatovich, Norova Nozima Nabiyevna**

O'zbekistonda "yashil iqtisodiyot" muhitida kreditlash va moliyalashtirish imkoniyatlari ....654
**Taxir Urkinbayev**

Budjet tashkilotlarida ichki nazorat tizimini tashkil qilishning xususiyatlari ....658
**Abduraxmanov Ramazon Abdullayevich**

Chinese Commercial Banks Experience in Asset Diversification ....663
**Uktamova Nozima Narzulla kizi**

Sanoat taraqqiyotida ishlab chiqarish korxonalarini ustuvor rivojlantirish istiqbollari ....667
**Yadgarov Akram Akbarovich**

Анализ деятельности коммерческих банков Узбекистана по кредитованию физических лиц ....673
**Базарова Нигора Равшановна**

Mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb etishning innovatsion jarayonlarga ta'sirini baholash ....684
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**

Raqamli iqtisodiyot sharoitida innovatsiyalarning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari ....689
**Kuziyeva Nargiza Ramazanovna, Xusanov Faxriddin Jamoliddin o'g'li**

Tashqi mehnat migratsiyasi ....694
**O. N. Djurayev**

Raqamli iqtisodiyotda sanoat tarmog'ining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishini baholash ....699
**Otaboyeva Dildora**

Nobank kredit tashkilotlarining moliyaviy xizmatlari sifatini oshirishning xorijiy mamlakatlat tajribasi ....705
**Raimov Xurshid Muxtorovich**

Tijorat banklarida moliyaviy injiniringni qo'llash istiqbollari ....711
**Saipnazarov Sherbek Shaylavbekovich**

O'zbekiston Respublikasi moliya bozorida tijorat banklari faoliyati: muammo va yechimlar ....716
**Toymuxamedov Ibroxim Rixsiboevich, Jumaev Islombek Akram o'g'li**

Agrar ta'lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish yo'llari ....723
**Boltayev Nurali Shiramatovich, Beglayev Uchqun Xurramovich, Abdiyev Izzat Risqiboyevich**

O'zini o'zi band qilgan shaxslardan olinadigan soliqlarni takomillashtirish orqali yashirin iqtisodiyotni jilovlash masalalari ....731
**Davranov Iskandar Jumayevich**

Iqtisodiy konsentratsiyalarni tartibga solish va nazorat qilishni takomillashtirish ....738
**Luqmanov Sharifxon A'zam o'g'li**

Role of Private and Public Kindergartens in Early Childhood Development ....744
**Makhmudova Munisakhon Abbos qizi**

"Yashil" enegriya quvvatlarini barpo etish iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash asosi sifatida ....749
**Muminova Elnoraxon Abdukarimovna, Umarova Dilnoza Oybek qizi**

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda CVP-tahlilni tashkil etishning muammoli jihatlari ....754
**Qlichev Baxtiyor Pardayevich**

Korxonada likvidlik riskini minimallashtirish orqali uning moliyaviy barqarorligini saqlab qolish ........................759
**Latipova Shaxnoza Maxmudovna**

Развитие международных торгово-экономических связей Республики Узбекистан ........................766
**Ким Татьяна Валерьевна, Гофуржонова Шахрибону Бахромжон кизи**

Kapital qurilishni boshqarish samaradorligini oshirishning dolzarb masalalari ........................774
**A. Bektemirov, M. U. Sarimsoqov**

O'zbekiston mehnat bozorida yoshlarning ish bilan bandlik darajasini oshirish........................780
**Mambetjanov Qahramon Qurbandurdiyevich, Bahromov Shahzod Fazliddinovich**

Роль имиджа в улучшении инвестиционной привлекательности высших учебных заведений ........................787
**Жанзаков Бекзот, Жонузоков Мирзабек**

Innovatsion kichik tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha xorij tajribasi va uni mamlakat iqtisodiyotida qo'llash imkoniyati........................795
**Toshaliyeva Saodat Toxirovna, Eshqulova Dilorom Abduravupovna**

Перспективы развития банковского сектора в Узбекистане для иностранных туристов ........................802
**Муминов Шахзод Низомиддинович, Каримова Азиза Махомадризоевна**

Innovatsion faoliyat moliyaviy modellari va mexanizmlarini rivojlantishning konseptual asoslari ........................806
**Ruzibayeva Nargiza Xakimovna**

Qishloq xo'jaligi tarmoqlarini innovatsion rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajribalar va ulardan respublikamizda samarali foydalanish yo'llari ........................814
**Ishniyazov Baxrom Normamatovich**

Turistik xizmatlarining o'ziga xos xususiyatlari va marketing tadqiqotlari........................819
**Berdiqulova Iroda Rayimqulovna**

Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi: asosiy muammolar va rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari ........................823
**Yeshimbetov Uktamjon Xudaybergenovich**

Iqtisodiyotning erkinlashtirilishi sharoitlarida kichik biznes sektori rivojlanishining imkoniyatlari........................832
**Botirova R. A., Sirojiddinov I. Q.**

Kriptovalyuta va blokcheyn tadqiqotlari: tendensiyalar va istiqbollar ........................835
**Berdiqulov Jurabek**

Bank risklarni monitoring qilish tizimini takomillashtirish ........................837
**Hamroyev Sherzod Axtamovich**

O'zbekiston hududlariga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda ko'p qavatli "yashil" fermer xo'jaliklarini tashkil etishning ahamiyati ........................843
**Turdimuratova Aziza Alisherovna**

Surxondaryo viloyatining mahalliy budjet daromadlarini oshirish yo'llari va uni arima modeli asosida prognozlash........................846
**Abdunazarova Shahnoza Norqo'chqor qizi**

Qishloq xo'jaligi tarmog'ining mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni va undagi tarkibiy o'zgarishlarni statistik baholash........................856
**Zakirova Umida Maxamadaminovna**

O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatish korxonalarining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati ........................863
**Pardayev Jamshid Muzaffarovich**

Turizm bozorini rivojlantirishda mehnat bozorining tutgan o'rni va ahamiyati ........................872
**Berdiqulova Iroda Rayimqulovna, Berdikulov Jurabek**

Проблемы расчета определения и планирования прибыли предприятий в условиях модернизации экономики ........................876
**Алиева С.С.**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS



# SUG'URTA TASHKILOTLARIDA HISOB SIYOSATINI ISHLAB CHIQISHNING AHAMIYATI

ORCID: 0000-0002-6325-1400

**Abduraimova Maftunaxon Axmatovna**
PhD, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, "Audit" kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada sug'urta tashkilotlarida hisob siyosatini ishlab chiqishning ahamiyati yoritib berilgan. Sug'urta tashkilotlarida hisob siyosatini ishlab chiqishning ahamiyatiga olimlar mushohadasi asosida aniqlik kiritilgan. Hisob siyosatini ishlab chiqish va samarali amal qilishi uchun amaliy tavsiyalar hamda xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: hisob siyosati, to'lov layoqati, moliyaviy mustaqillik, hujjatlar aylanmasi, korporativ boshqaruv, analitik va sintetik hisob, ish sifati, biznes-reja, buxgalteriya registrlari.

Abstract: This article highlights the importance of the development of accounting policy in insurance organizations. The importance of accounting policy development in insurance organizations is further enriched based on the observation of scientists. Practical recommendations and conclusions have been formulated for the development and effective implementation of the accounting policy.

Key words: Accounting policy, solvency, financial independence, document circulation, corporate management, analytical and synthetic accounting, work quality, business plan, accounting registers.

Аннотация: В данной статье описано важность разработки учетной политики в страховых организациях. Важность разработки учетной политики в страховых организациях дополнительно уточнена на основе наблюдений ученых. Сформулированы практические рекомендации и выводы для разработки и эффективной реализации учетной политики.

Ключевые слова: учетная политика, платежеспособность, финансовая независимость, документооборот, корпоративное управление, аналитический и синтетический учет, качество работы, бизнес-план, регистры бухгалтерского учета.

Bugungi kunda sug'urta tashkilotlarida hisob siyosatini ishlab chiqish va uning metodologik asoslarini takomillashtirish dolzarb masala bo'lib kelmoqda. Sug'urta tashkilotlarida hisob siyosatini ishlab chiqish faoliyat uzluksizligini ta'minlash, mijozlar oldidagi majburiyatlarni bajarish, moliyaviy rentabellikni oshirish, to'lov layoqatini baholash, moliyaviy mustaqillikni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Sug'urta tashkilotlarida hisob siyosatining qanday shakllanganligiga qarab, faoliyatning qay darajada zamonaviy ko'rinishda aks etishi va ishlash mexanizmini ham bilish mumkin bo'ladi.

Hisob siyosati barcha tashkilotlarda buxgalteriya hisobini yuritish va tarmoqning xususiyatidan kelib chiqib, uning qoidalarini belgilab beradigan muhim hujjat hisoblanadi.

Sug'urta tashkilotlarida hisob siyosati deganda, tashkilot rahbari tomonidan buxgalteriya hisobini yuritish, moliyaviy hisobotlarni rasmiylashtirish va to'ldirish, analitik va sintetik hisob yozuvlarini yuritish, moliyaviy hisobot tuzish, ichki hujjatlar aylanmasini tashkil qilish, xarajatlarni hisobga olish uchun qabul qiladigan usullarning yig'indisini o'z ichiga oladi.

"Hisob siyosati va moliyaviy hisobot" nomli 1-son BHMSga ko'ra, "buxgalteriya hisobini guruhlarga ajratish va xo'jalik faoliyati faktlariga baho berish, aktivlar qiymatini to'lash, hujjatlar aylanmasini, mol-mulkni ro'yxatga olishni tashkil etish usullari, buxgalteriya hisobida hisobotlarni qo'llanish usullari, hisob registrlari tizimi, axborotlarni ishlab chiqish va o'zga tegishli usullar, uslubiyatlar buxgalteriya hisobini yuritish usullariga kiradi" [1].

Sug'urta tashkilotlarida hisob siyosatining ahamiyati soha xususiyatini ochib berish va operatsiyalarni buxgalteriya hujjatlarida aks ettirishdan iboratdir. Sug'urta tashkilotlarida hisob siyosati qoidalariga rioya etish, avvalo, korporativ boshqaruvni tashkil qilish va samarali olib borish uchun muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Ta'kidlash joizki, hisob siyosatini ishlab chiqish nafaqat qonun hujjatlarining talabi, shuningdek, tashkilot xarajatlarini, foyda olish ko'rsatkichlarini tartibga solish dastagi ham hisoblanadi. Hisob siyosatini ishlab chi-

qishda, har bir tashkilot o‘zining faoliyat turlaridan kelib chiqqan holda, mustaqil ishlab chiqadi, bir tashkilotning hisob siyosati ikkinchi bir tashkilot hisob siyosatiga o‘xshamaydi, ya’ni, tadbirkorlik faoliyatining har xil turlari uchun hisob siyosatining bir xil usullari mos kelmaydi.

Sug‘urta tashkiloti rahbari moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar uchun eng foydali axborot beradigan hisob siyosatini ishlab chiqish chog‘ida o‘z qarorlaridan foydalanishga haqlidir. Bunda qabul qilingan qarorlar amaldagi qonun hujjatlariga zid bo‘lmasligi kerak. Sug‘urta tashkilotlarida hisob siyosati tashkilotning buxgalteriya hisobini yuritish va tartibga solish kabi xususiyatlarini o‘z ichiga olgan ichki hujjati hisoblanadi.

8-BHXSga ko‘ra, “hisob ciyosati – bu tadbirkorlik subyekti tomonidan moliyaviy hisobotlarni tayyorlashda va taqdim etishda qo‘llaniladigan muayyan tamoyillar, usullar, odatlar, qoidalar va amaliyotlardir. Hisob siyosatidagi o‘zgarishni va hisoblab chiqilgan bahodagi o‘zgarish natijasini istiqbolli qo‘llash – bu, mos ravishda:

a) hisob siyosati o‘zgargan sanadan keyin sodir bo‘ladigan operatsiyalar, boshqa hodisalar va sharoitlarga nisbatan yangi hisob siyosatini qo‘llashdir;
b) hisoblab chiqilgan bahodagi o‘zgarishning ta’sirini ushbu baholash ta’sir qilgan joriy va kelgusi davrlarda tan olish ekani keltirilgan.

Bundan tashqari, hisob siyosatidagi o‘zgarishlar faqat quyidagi hollarda o‘zgartirishi kerakligi keltirilgan:

a) agar o‘zgartirish MHXS tomonidan talab etilsa;
b) agar o‘zgartirishning natijasida moliyaviy hisobotlarda tadbirkorlik subyektining moliyaviy holatiga, moliyaviy natijalariga yoki pul oqimlariga operatsiyalarning, boshqa hodisalarning va sharoitlarning ta’siri to‘g‘risida ishonchli va o‘rinliroq ma’lumotlar aks ettirilsa, amalga oshirilishi mumkin.

Hisob siyosatidagi o‘zgarishning taqdim qilingan bir yoki undan ortiq oldingi davrlar uchun qiyosiy ma’lumotga nisbatan biror-bir davrga tegishli bo‘lgan ta’sirini aniqlashning amaliy imkoni mavjud bo‘lmaganida, tadbirkorlik subyekti yangi hisob siyosatini retrospektiv qo‘llashning amaliy imkoni mavjud bo‘lgan davrlardan eng birinchi davri (bu joriy davr ham bo‘lishi mumkin), boshiga bo‘lgan aktivlar va majburiyatlarning balans qiymatiga nisbatan qo‘llashi kerak hamda ushbu davrdagi kapitalning ta’sir qilingan har qanday tarkibiy qismining boshlang‘ich qoldig‘iga tegishli tuzatish kiritishi lozim” [2].

Hisob siyosatini shakllantirish tashkilotning tashkiliy tuzilmasidan, biznes turidan kelib chiqqan holda, faoliyat xususiyatlarini inobatga olib tuzilishi kerak. Ta’kidlash kerakki, hisob siyosati barcha tashkilotlarda birbiridan farq qilgan holda tuziladi. Hattoki, bir xil ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohasi bo‘lsa ham, farqlanishi mumkin.

Hisob siyosati bo‘yicha ko‘pgina ilmiy izlanishlar olib borilgan va olimlar o‘z qarashlarini ta’kidlab o‘tgan.

Xususan, Ye. S. Gridnevning fikricha, hisob siyosati – “bu korxona tomonidan biznes sharoitlariga mos keladigan buxgalteriya hisobi usullari majmuidir, ya’ni korxonaning iqtisodiy faoliyati axborotlarini birlamchi kuzatish, xarajatlarni taqsimlash, joriy operatsiyalarni aks ettirish va yakuniy umumlashtirish tartibini belgilaydigan buxgalteriya usullari yig‘indisidir” [3].

Z. Z. Safina, Yu.Ya. Raxmatullin ta’kidlashicha, “tashkilotning hisob siyosati soddalashtirilgan tizimdan foydalangan holda buxgalteriya hisobini yuritish va tashkilotning ishchi schotlar rejasi hamda buxgalteriya ishini tartibga soladigan umumiy tamoyillar yig‘indisidir” [4].

Turkiyalik iqtisodchi olimlar fikricha, “hisob siyosati moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va taqdim etishda korxona tomonidan qo‘llaniladigan prinsiplar, asoslar, qoidalar va amaliyotlar yig‘indisi hisoblanadi, ular aktivlar, majburiyatlar, daromadlar va xarajatlarni baholash hamda hisobga olish bilan bog‘liq usullardan iborat” [5].

V. V. Semenixin tomonidan olib borilgan tadqiqotda, “hisob siyosati tashkilotning barcha to‘laydigan soliqlari va imtiyozlari aks ettirilgan buxgalteriya usullari ekanligi, hamda, shunga muvofiq soliqlarni undirish talabi mamlakat qonunchiligidan kelib chiqqan holda belgilanishi kerak” [6] ta’kidlab o‘tilgan.

A. Z. Avlokulov tomonidan olib borilgan tadqiqotda hisob siyosati auditiga to‘xtalib o‘tilgan: “Hisob siyosati auditning dastlabki va eng katta hajmli obyektlaridan biri bo‘lganligi sababli auditorlik tekshiruvlarida ko‘plab audit amallarini qo‘llash zarur. Tekshiruv jarayonida auditor tomonidan qo‘llaniladigan usullar va amallar tekshirilayotgan xo‘jalik yurituvchi subyekt rahbariyati bilan kelishilishi shart. Mazkur usullar va amallarni qo‘llash hisob siyosatining izchilligi va qonuniyligiga haqqoniy baho berishda xizmat qilishi lozim. Hisob siyosati auditida xalqaro standartlarda belgilangan usullar va amallarning qo‘llanilishi xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyati natijalarini odilona baholash imkoniyatini yaratadi va audit ishi sifatining oshishiga xizmat qiladi” [7].

O. Yu. Bubnovaning keltirishicha, “hisob siyosati tashkilotning ichki hujjati bo‘lib, buxgalteriya hisobi va soliq hisobini yuritish qoidalarini belgilaydi. “Korxonaning hisob siyosati” atamasi 1980-yillarning oxirida qo‘llanila boshlangan bo‘lib, quyidagi buxgalteriya hisobi usullarini o‘z ichiga oladi:

- iqtisodiy faoliyat faktlarini guruhlash va baholash;
- aktivlar qiymatini so‘ndirish;
- hujjatlar aylanishini tashkil etish;
- inventarizatsiyani o‘tkazish;
- buxgalteriya hisobini yuritish;
- buxgalteriya registrlarini tashkil etish;
- axborotni qayta ishlash” [8].

TARAQQIYOT PROGRESS ПРОГРЕСС

Kuban davlat agrar universiteti professor-o‘qituvchilari A. A. Adamenko, S. X. Berlina va X.Sh. Xuako hisob siyosati borasida tadqiqotlar olib borib, quyidagi xulosalarga kelishgan: “hisob siyosati kompaniyani boshqarish vositasidir” [9].

A. V. Suvorovning ta’kidlashicha, “hisob siyosati buxgalteriya hisobi yozuvlarini yuritish va baholashni, shuningdek, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talab qiladigan barcha eslatmalar va operatsiyalarni hisobga olgan holda moliyaviy hisobotlarni muhim, tushunarli va ishonchli ma’lumotlar asosida tayyorlashni belgilaydi. Hisob siyosati hisobot shakllarining mazmuni va tuzilishini, shuningdek, ularni taqdim etish tartibini ham belgilaydi. Hisob siyosatini shakllantirish, mulkchilik shaklidan qat’i nazar, barcha tashkilotlarda yuritilishi zarurdir” [10].

PhD Z. Zufarova aynan hisob siyosati borasida tadqiqotlar olib borib, mazkur hujjatning mazmun-mohiyatini quyidagicha yoritgan: “xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan tashqi foydalanuvchilar uchun taqdim etiladigan moliyaviy hisobot axborotlarining sifati mazkur subyektlar tomonidan ishlab chiqilgan hisob siyosatiga bevosita bog‘liqdir. Hisob siyosati aktivlar, xususiy kapital, majburiyatlar, daromad va xarajatlarning moliyaviy hisobotda to‘g‘ri va normativ-huquqiy hujjatlar talablari asosida shakllanishini belgilab beruvchi hujjat hisoblanadi” [11].

I. P. Shkarevaning fikricha, “tashkilotning hisob siyosati tashkil qilingan oydan keyingi oyning birinchi sanasidan qo‘llanilishi kerak, tashkilot vaqti-vaqti bilan hisob siyosatiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritishi zarur, bu albatta, MHXS asosida amalga oshirilishi, hisob siyosatidagi o‘zgarishlarni ikkita yondashuv asosida hisobga olish, ya’ni, retrospektiv yoki istiqbolli qo‘llash kerak” [12].

PhD B. N. Sayfutdinov esa o‘z tadqiqotida “hisob siyosati har qanday xo‘jalik yurituvchi subyektning hisobot davrida buxgalteriya hisobi ishlarini yuritishda qo‘llaniladigan qoidalar, usullar va talablar majmuasini o‘z ichiga mujassam etadi. Hisob siyosatining oqilona va izchil tuzilishi moliyaviy hisobot axborotlarining ishonchliligi va shaffofligi oshishiga xizmat qiladi” [13], degan xulosaga kelgan.

Umuman olganda, hisob siyosati tashkilotda qo‘llaniladigan buxgalteriya hisobini yuritish qoidalari, tashkilotning xususiyatlari va barcha maqsadlarini ifodalaydigan qarashlar to‘plami hisoblanadi. Quyidagi 1-rasmda sug‘urta tashkilotining hisob siyosatini kengroq ochib beramiz:




1-rasm: Sug‘urta tashkilotida hisob siyosatining tarkibiy tuzilishi[1]

1 Tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

1-rasm ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, sug'urta tashkilotlari hisob siyosatining tarkibi va tuzilishi hisob siyosatining uslubiy jihatlari, hisob siyosatining tashkiliy jihatlari, hisob siyosatining texnik jihatlari, boshqa jihatlar va ularning tarkibiy qismlaridan iborat.

Sug'urta tashkilotining hisob siyosati moliyaviy, boshqaruv, soliq hisobi va yuridik jihatlarni ham o'z ichiga qamrab olishi mumkin. Sug'urta tashkilotida tuzilgan hisob siyosati, albatta, buxgalteriya qonunchiligi va standart talablariga asoslanishi lozim.

Sug'urta tashkilotlari tomonidan tanlangan hisob siyosati uning moliyaviy holatini va moliyaviy faoliyatini aks ettirishi lozim. Ma'lumki, hisob siyosatini ishlab chiqish bosh buxgalter zimmasiga yuklangan bo'lib, uni tasdiqlashni rahbar amalga oshirib, oqilona va sug'urta tashkilotiga aniq maqsadga erishish imkoniyatini yaratishi kerak. Shundan kelib chiqqan holda, ta'kidlash lozimki, hisob siyosati sug'urta tashkilotlari daromad va xarajatlarini boshqarish, strategiyasini belgilash, samarali ichki nazorat tizimini ishlab chiqish, kadrlar masalasini tartibga solish va vakolat lavozimlarini ishlab chiqish, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan har xil nizolarni bartaraf qilishda amaliy tavsiyalar bo'lib xizmat qilishi shart.

Sug'urta tashkilotlarida shakllantirilgan hisob siyosatining asosiy maqsadi va vazifasi, avvalo, faoliyatni tashkil etish hamda buxgalteriya hisobi yuritish usullarini to'g'ri tanlash va hujjatlar aylanishini tezkorligini ta'minlashdan iboratdir.

Sug'urta tashkilotlarida hisob siyosatini shakllantirish sug'urta faoliyatining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, uning tashkiliy tuzilmasiga, faoliyat turiga, tashkilotning moliya strategiyasiga, raqamlashtirish holatiga, moddiy-texnik bazasiga, va albatta, kadrlarning malakaviy talabiga ham bog'liq bo'ladi.

Sug'urta tashkilotida buxgalteriya hisobi ishlarini samarali tashkil qilish va standart talablarini bajarishda hisob siyosatining o'rni beqiyosdir. Chunki samarali ishlab chiqilgan hisob siyosati axborotlarning ishonchliligini ta'minlashga va xarajatlarni to'g'ri yo'naltirib, majburiyatlarni to'g'ri taqsimlash hamda aktivlaridan oqilona foydalanish vazifasini bajarishga xizmat qiladi. Samarali hisob siyosati, avvalo, sug'urta tashkilotida katta axborot bazalarini va elektron hujjatlar aylanmasini tashkil qilish, ishlab chiqilgan strategiyani optimal bajarish orqali yuqori natijalarga erishish, xalqaro standartlar talablaridan unumli foydalanish va ushbu yo'ldagi harakatlarni o'z ichiga qamrab oladi.

Fikrimizcha, hisob siyosatini ishlab chiqishni quyidagi ketma-ketlik asosida amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.




2-rasm: Sug'urta tashkilotida hisob siyosatini ishlab chiqish bosqichlari[2]

Mazkur rasm ma'lumotlari sug'urta tashkilotlarida samarali hisob siyosatini tuzish uchun foydali bo'ladi, deb hisoblaymiz.

2 Tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Yuqorida keltirilgan fikr va mulohazalardan kelib chiqqan holda quyidagi xulosa va takliflar shakllantirildi:

- hozirgi kunda barcha tashkilotlarda hisob siyosatini tuzishning ahamiyati yuqori bo‘lishi bilan bir qatorda, u faoliyat strategiyasini belgilab beruvchi va biznes-rejani tuzishning optimal yechimi hisoblanadi. Biroq shunday bo‘lishiga qaramasdan, hisob siyosati nomigagina tuzilib, shaklan mavjud, degan qabilida ish olib borilmoqda. Taklif sifatida aytishimiz mumkinki, hisob siyosatini ishlab chiqishda har bir tashkilot o‘zining strategiyasidan kelib chiqishi va belgilangan bandlari asosida faoliyat yuritishi zarur;
- sug‘urta tashkilotlarida hisob siyosati boshqaruv hisobi sohasida ko‘p sonli muqobil variantlarni o‘z ichiga oladi. Masalan, tannarxni kalkulyatsiya qilish, tovar-moddiy zaxiralarni baholash usullarini belgilash, majburiyatlarni muddatida bajarish, aktivlardan samarali foydalanish va boshqalar. Shundan kelib chiqib ta’kidlash joizki, hisob siyosatining o‘rni yuqori va uning talablarini bajarish sug‘urta tashkilotlariga faqatgina iqtisodiy samara olib kelishi mumkin;
- hozirgi kunda mamlakatimizda xalqaro standartlarni qo‘llash jadal olib borilayotgan bir sharoitda, 1-son BHMS talablarini xalqaro standartlarga moslashtirish maqsadga muvofiq bo‘lar edi;
- sug‘urta tashkilotlarida hisob siyosatini tuzish orqali ularning soliq munosabatlarini ham tartibga solish mumkin bo‘ladi. Bu hisob siyosatida soliqlarni hisoblash va to‘lash tartibi bilan bog‘liq bo‘lgan masalalarni ochib beradi, shuningdek, sug‘urta tashkilotining barcha majburiyatlar bajariladi, soliqqa tortiladigan bazaning to‘g‘ri shakllantirish va soliqlarni o‘z vaqtida to‘lashga imkon beradi;
- sug‘urta tashkiloti hisob siyosati moliya-xo‘jalik faoliyatini tahlil qilish, biznes-rejalar tayyorlash, boshqaruv faoliyatiga oid maslahat berish buxgalteriya hisobini yuritishni raqamlashtirish va moliyaviy axborotlarning xavfsizligini ta’minlash ham aynan hisob siyosati vazifalariga kiradi.

Umuman olganda, hisob siyosati sug‘urta tashkilotining butun buxgalteriya hisob tizimini tashkil etib, samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish maqsadida, ma’lumotlarni yig‘ish vositalaridan biri hisoblanadi hamda maksimal foydaga erishish va samarali xizmat ko‘rsatish uchun ma’lumotlardan keng foydalanish imkonini beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**


1. “Hisob siyosati va moliyaviy hisobot” nomli 1-son BHMS. www.lex.uz
2. “Hisob siyosati, hisoblab chiqilgan baholardagi o‘zgarishlar va xatolar” nomli 8-son BHXS. www.ifac.org
3. Гриднев Е.С. Организация и ведение учетной политики на предприятии. //Экономические науки. №4, 2017г.
4. Сафина З.З., Рахматуллин Ю.Я. Оптимизация содержания учётной политики организации. //Экономические науки. 2014. ВЫПУСК №6 (50)
5. Oğuzhan BAHADIR, Büke TOLGA. Accounting policy options under IFRS: evidence from Turkey. //Accounting and Management Information Systems. Volume 12, No. 3, 2013. Pp. 388–404.
6. Семенихин В.В. Налог на имущество организаций и учетная политика. //Налогообложение. 23 (287) – 2011.
7. Avlokulov A.Z. Hisob siyosati auditini takomillashtirish yo‘nalishlari. //Aktuar moliya va buxgalteriya hisobi ilmiy jurnali, 2024 4(02), 12-17 b.
8. Бубнова О.Ю. Правовое обеспечение учетной политики организации. //Экономика и право. № 9 (118) сентябрь 2016.
9. Адаменко А.А., Берлина С.Х., Хуако Х.Ш. Совершенствование учетной политики организации. //Вестник Академии знаний №14(3) 2015. Стр. 4-8.
10. Суворов А.В. Учетная политика кредитной организации и МСФО. Кредитные организации. //Международный бухгалтерский учет. 11 (107) – 2007.
11. Zufarova Z.R. Hisob siyosati auditini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent: 2023 y. 56 b.
12. Шкарева И.П. Учетная политика организации и последствия ее изменения. //На пути к международным стандартам 30 (276) – 2013.
13. Sayfutdinov B.N. Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy hisobotni tuzish va auditini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent: 2023 y. 56 b.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

2024. № 4

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.